

07.00.00 – TARIX FANLARI

YANGI O'ZBEKISTONDA SUD TIZIMI VA BU SOHADA ISLOHATLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Ismoiljonova Mubinaxon Umidjon qizi,
Andijon Davlat Universiteti Tarix fakulteti 3-bosqich talabasi
<https://doi.org/10.53885/edires.2024.03.1.001>

Mo'minov Husanboy Madaminjonovich,
Andijon davlat universiteti tarix fakulteti O'zbekiston tarixi kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yangi O'zbekistonni barpo etishda amalga oshirilayotgan bir qator muhim islohotlar shu jumladan sud-huquq tizimidagi yangiliklar va Sud – zimmasiga davlat hokimiyatining bo'g'inlaridan biri – Sud hokimiyatini amalga oshirish yuklangan organ ekanligi haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: sud tizimi, xalqaro huquq, bir sud – bir instansiya, Oliy xo'jalik sudi, ma'muriy sud, "xabeas korpus".

JUDICIAL SYSTEM IN NEW UZBEKISTAN AND SPECIFIC ASPECTS OF REFORMS IN THIS FIELD

Ismailjonova Mubinakhon Umidjon kizi,
Andijan State University, 3rd grade student of the Faculty of History

Mominov Husanboy Madaminjonovich,
Associate Professor of the Department of History of Uzbekistan, Faculty of History, Andijan State University

Abstract. This article describes a number of important reforms implemented in the establishment of New Uzbekistan, including news in the judicial legal system and information about the fact that the Court is one of branches of state power – the body intrusted with the implementation of judicial power.

Key words: judicial system, international law, one court – one instance, Supreme Economic Court, administrative court, "habeas corpus".

СУДЕБНАЯ СИСТЕМА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ И ОСОБЕННОСТИ РЕФОРМ В ЭТОЙ СФЕРЕ

Исмаилжонова Мубинахон Умиджон кизи,
Андижанский государственный университет, студентка 3 курса исторического факультета

Моминов Хусанбой Мадаминжонович,
Доцент кафедры истории Узбекистана исторического факультета Андижанского государственного университета

Аннотация. В данной статье описан ряд важных реформ, реализованных в период становления Нового Узбекистана, в том числе новости судебно-правовой системы и информация о том, что Суд является одной из ветвей государственной власти – органом, на который возложено осуществление судебной власти.

Ключевые слова: судебная система, международное право, один суд – одна инстанция, Высший хозяйственный суд, административный суд, хабеас корпус.

Kirish. O'zbekiston Respublikasida sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatni modernizatsiya qilishda muhim ahamiyatga ega. Xoh u ijtimoiy-iqtisodiy, xoh madaniy-ma'naviy yoki sud-huquq, ulardan ko'zlangan oliy maqsad fuqarolarning huquq va erkinliklarini samarali himoya

qilish, ularning qonuniy manfaatlari buzilishining oldini olish, batafsil yoritadigan bo‘lsak, baxtli va farovon hayot kechirishini ta’minlashga qaratilgan bo‘ladi. Bu borada 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi mazkur demokratik islohotlarni o‘tkazishda asosiy omil bo‘lib xizmat qildi[3].

“Sudyaning ongida – adolat, tilida – haqiqat, dilida – poklik bo‘lishi kerak”[4]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakat sud tizimi vakillari, o‘zbek sudyalarini oldiga ana shunday haqqoniy talabni qo‘ydi.

Davlatimiz rahbarining 2017- yil 13- iyunda sudyalar bilan bo‘lib o‘tgan birinchi tarixiy uchrashuvda so‘zlagan nutqida sud tizimini fuqarolarimizning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qiladigan adolat qo‘rg‘oniga aylantirishdek ustuvor maqsad o‘z mujassamini topgan. Yurtboshimiz 2017- yil 22- dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta’kidlaganidek, «Sudlarning asosiy vazifasi adolatni qaror toptirishdan iborat. Buning uchun sud har bir ish yuzasidan qonuniy, asosli va adolatli qaror chiqarishi lozim»[4].

Harakatlar strategiyasi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini takomillashtirish uchun asos bo‘lib, Asosiy Qonunimizga muhim o‘zgartirishlar kiritildi. Xususan, 2017- yil 6- aprelda Konstitutsianing 7 ta moddasiga kiritilgan tuzatishlarda quyidagi 3 ta ustuvor vazifa:

birinchidan, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish huquq kafolatlarini kengaytirish;

ikkinchidan, odil sudlovga erishish darajasini, sud ish yurituvining sifatini oshirish;

uchinchidan, nomzodlarni tanlash va sudyalar lavozimlariga tayinlash tizimini yanada takomillashtirish – sud-huquq islohotlarining muhim yo‘nalishlari sifatida mustahkamlab qo‘yildi.

Mamlakatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklarini, eng avvalo, jinoi tajovuzlardan himoya qilishning ishonchli kafolatlarini ta’minlashga, shuningdek, inson sha’ni va qadr-qimmati kamsitilishiga, qonuniy manfaatlarini cheklanishiga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Sud tizimidagi shiddatli o‘zgarishlarni uchta mezon – tizimdagi avvalgi holat, hozirgi holat va erishilgan natijalar asosida tahlil etish lozim.

Birinchi muhim o‘zgarish: tub islohotlar boshlanishiga qadar mamlakatimizda bir-biridan mustaqil bo‘lgan – Oliy sud va Oliy xo‘jalik sudi faoliyat yuritib kelgan. 2017- yil 1- iyunda Oliy sud va Oliy xo‘jalik sudi yagona sud hokimiyati – O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudiga birlashtirildi. Natijada yagona sud amaliyoti ta’minlandi, bir-birini takrorlovchi funksiyalar muvofiqlashtirildi.

Ikkinchi muhim o‘zgarish: ilgari ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar fuqarolik va iqtisodiy sudlar tomonidan hal qilingan. Endilikda davlat organlari va mnsubdor shaxslarning qarorlari ustidan keltirilgan shikoyatlarni ko‘radigan maxsus – ma’muriy sudlar tashkil etildi.

Buning natijasida:

jismoniy va yuridik shaxslar huquqlarining sud orqali himoya qilinishi yanada kengaytirildi; yagona ma’muriy sud amaliyoti shakllantirildi;

Oliy sud Plenumi qarorlari to‘liq xatlovdan o‘tkazilib, muvofiqlashtirildi.

Uchinchi muhim o‘zgarish: yaqin vaqlargacha investitsiyaviy nizolar fuqarolik va iqtisodiy sudlar tomonidan barcha sud bosqichlarida hal qilingan. 2021- yil 1- yanvarda Oliy sudda investitsiyaviy nizolar va raqobatga oid maxsus sudlov tarkibi tashkil etildi. Ushbu sudlov tarkibi investorlar huquqlarini himoya qilish bilan bevosita shug‘ullanmoqda.

Shunday qilib, quyidagi uchta muhim natijaga erishildi: investorlar yillab sarson bo‘lishining oldi olindi; nizolar bita sudda hal qilinishi ta’minlandi; mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligi ortdi.

Bundan tashqari, sud-huquq sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirishga ustuvor e’tibor qaratilishi natijasida sudlar mustaqilligi va odil sudlovga bo‘lgan huquqni himoya qilish sohasida xalqaro standartlarni implementatsiya qilish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 24- iyuldagagi “Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni sud instansiyalarning kamayishi va nazoratning to‘liq bekor qilinishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Farmon doirasida bir qator muhim natijalarga erishildi.

Birinchidan, sud himoyasini ta’minlashdagi ortiqcha byurokratik to‘silalar olib tashlanib, sud qarorlarini qayta ko‘rishning bir-birini takrorlovchi bosqichlari 3 tagacha kamaytirildi.

Ikkinchidan, sud ishlarini nazorat tartibida ko‘rish instituti to‘liq tugatildi.

Uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, Bosh prokurori va ular o‘rinbosarlarining

sudning hal qiluv qarorlari, hukmlari, ajrimlari hamda qarorlari ustidan nazorat tartibida protest kiritish huquqi bekor qilindi.

“Bir sud – bir instansiya” tamoyilining joriy etilishi natijasida fuqarolarning odil sudlovga erishish darajasi oshmoqda.

Ma’lumki, ilgari sudlarda quyidagi 7 ta bosqichda: Birinchi instansiya (tuman, shahar); Apellyatsiya yoki kassatsiya instansiyasi (viloyat); Viloyat sudi Rayosati; Oliy sud sudlov hay’ati; Oliy sud nazorat instansiyasi; Oliy sud Rayosati va Oliy sud Plenumi bosqichlarida ishlar ko‘rilgan.

Odil sudlovga oid xalqaro standartlarga mos ravishda uch bosqichli sud tizimi yaratildi. Ya’ni:

- birinchi instansiya – tuman va shahar sudlari;
- apellyatsiya instansiyasi – viloyat darajasidagi sudlar;
- kassatsiya instansiyasi – Oliy suddan iborat bo‘lgan “Bir sud – bir instansiya” tamoyili joriy qilindi. Islohotlar tufayli quyidagi amaliy natijalarga erishildi:
- birinchi natija: fuqarolar ortiqcha ovoragarchiligining oldi olindi;
- ikkinchi natija: odil sudlovni amalga oshirish samaradorligi ortdi;
- uchinchchi natija: bir-birini takrorlovchi instansiyalar qisqartirildi;
- to‘rtinchi natija: Oliy sudda 84,8 foiz yakuniy qarorlar qabul qilinishiga erishildi;
- beshinchi natija: xalqaro ekspertlar e’tiroziga sabab bo‘layotgan nazorat instansiyasi to‘liq bekor qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 30- noyabrda qabul qilingan “Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni dalillar maqbulligi masalasini aniqlashtirishda muhim qadam bo‘ldi. Shuningdek, Jinoyat-protsessual kodeksning 95-moddasiga 2018- yil 4- aprelda dalillarning maqbul emasligiga oid yangi normalar kiritildi.

Endilikda agar dalillar qonunga xilof usullar orqali yoki jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlarini cheklash yo‘li bilan yoxud Jinoyat-protsessual kodeksning talablari buzilgan holda olingan bo‘lsa, shu jumladan:

qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo‘llagan holda;

ularni soxtalashtirish yo‘q qalbakilashtirish yo‘li bilan;

himoyaga bo‘lgan huquqlarni, shuningdek, tarjimon xizmatlaridan foydalanish huquqi buzilgan holda;

jinoyat ishi bo‘yicha protsessual harakatning mazkur jinoyat ishini yuritishni amalga oshirish huquqiga ega bo‘lmagan shaxs tomonidan bajarishi natijasida;

noma’lum manbadan yoxud jinoyat ishini yuritish jarayonida aniqlash mumkin bo‘lmagan manbadan;

jabrlanuvchi, guvoh, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining surishtiruvdagagi, dastlabki tergovdagi sudda dalillar majmui bilan o‘z tasdig‘ini topmagan ko‘rsatuvlaridan olingan bo‘lsa, ular dalil sifatida maqbul emas deb topiladi.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi Harakatlar strategiyasining uzviy davomidir. Unda bugungi global o‘zgarishlar, aholi turmush tarzi, hayot talabi va qadriyatlarimizdan kelib chiqqan holda yetta ustuvor yo‘nalishdagi maqsad va vazifalar belgilangan.

Taraqqiyot strategiyasi 100 ta ustuvor maqsadni o‘zida mujassam etgan bo‘lsa, shundan sud islohotlari bilan bog‘liq bandlar bevosita ikkinchi yo‘nalish doirasida belgilangan.

Xususan, “Davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o‘rnatish hamda fuqaro va tadbirdorlik sub‘ektlarining odil sudlovga erishish darajasini oshirish” nomli 15-maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutilmoqda:

ma’muriy sudlarda mansabdor shaxslarning qarorlari ustidan berilgan shikoyatlarni ko‘rib chiqish tizimini takomillashtirish orqali sud nazoratini qo‘llash sohasini kengaytirish;

“Xabeas korpus” institutini yanada rivojlantirish orqali tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish; sud protsessida tomonlarning haqiqiy tenglik va tortishuv tamoyillarini ro‘yobga chiqarish;

sudlar tizimida “yagona darcha” tamoyilini keng joriy etish maqsadida arizalarni sudga taalluqliligidan qat’iy nazar qabul qilish va vakolatli sudga yuborish hamda muayyan ish doirasida barcha huquqiy oqibatlarni hal qilishni ta’minalash tizimini joriy etish;

sud tizimini bosqichma-bosqich raqamlashtirish, byurokratik g‘ov va to‘siqlarni bartaraf etish orqali

fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlarining odil sudlovga erishish darajasini tubdan oshirish; nizolarni hal etishning muqobil usullaridan keng foydalanish uchun zarur tashkiliy-huquqiy shartsharoitlarni yaratish, yarashuv institutini qo'llash doirasini yanada kengaytirish;

sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlashda sudyalar hamjamiyati organlarining rolini yanada oshirish, sudyalarning o'zini o'zi boshqarish tamoyilini keng joriy etish hamda sudyalarga g'ayriqonuniy tarzda ta'sir o'tkazishning oldini olish bo'yicha ta'sirchan mexanizmlarni yaratish;

sudyalar korpusini shakllantirishda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, sud tizimidagi rahbarlik lavozimlariga tayinlashda saylanish va hisobdorlik kabi demokratik tamoyillarni joriy etish;

Sud tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish ishlarini olib borish.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, ushbu vazifalar hayotimizga tatbiq etilishi natijasida mamlakatimizdaadolat va qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladigan "Yangi O'zbekiston – xalqchil va insonparvar davlat" g'oyasi amalga oshadi hamda "Inson qadri uchun" degan ustuvor tamoyil to'laqonli ro'yobga chiqariladi. Jumladan, bunda sud tizimining roli va mas'uliyati yanada kuchayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

O'zbekiston Respublikasining "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni.

O'zbekiston Respublikasining "Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni

<https://uza.uz/oz/posts/ozbekistonda-2016-2023-yillarda-sud-tizimida-amalga-oshirilgan-islohotlar-va-erishilgan-yituqlar>

<http://www.insonhuquqlari.uz/oz/articles/odil-va-mustaqlil-sud-jangi-o'zbekiston-poydevori>